

5-mavzu: "Marvarid" (Meri Joslin)

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy: o'quvchilarni hikoya matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, hikoyani ifodali o'qishni o'rgatish.

b) tarbiyaviy: o'quvchilarga saxiy, qo'li ochiq inson bo'lishni o'rgatish, o'zidagi bor narsalarni boshqalar bilan ham baham ko'ra olish kerakligini tushuntirish.

c) rivojlantiruvchi: o'quvchilarning ifodali o'qish ko'nikma va malakalarini, mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Dars turi: Yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, "Sinkveyn" metodi, savol-javob, ta'limiy o'yinlar.

Dars jihozi: Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.

O'quvchilarni darsga hozirlash.

Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi.

II. Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uyga berilgan vazifa – "Vatan yoshlari" she'rini o'quvchilar yoddan aytib beradilar.

"Sinkveyn" metodi. "Vatan" so'ziga ta'rif beriladi.

Vatan

Muqaddas, yagona


Himoyalaydi, tarbiyalaydi, ulg`aytiradi

Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.

O`zbekiston

III.Yangi mavzu bayoni.

O`quvchilarga savol bilan murojaat qilinadi:



Darslikda berilgan rasmlar orasidan marvarid tasviri keltirilganini topadilar.

Bugungi mavzu e`lon qilinadi: "Marvarid " hikoyasi. Yangi mavzu o`quvchilarga o`qituvchi tomonidan ifodali o`qib beriladi. Mazmuni tushuntiriladi.

Lug`at ishi:

Hadya – sovg`a

Go`sha – turar joy, boshpana

"Marvarid" hikoyasi o`quvchilarga zanjir usulida o`qitiladi.

IV.Yangi mavzuni mustahkamlash.

Savollarga javob beriladi.

1.Nima uchun qiz marvarid haqiqatdan ham Joshniki, deb aytdi?

2.Nima uchun Josh Rubenga marvaridni olishi mumkinligini aytdi?

3.Ruben marvaridni olganidan so'ng hayotida qanday o'zgarishlar qildi? Ikkita misol keltiring.

"Topib o'qi!" mashqi.

Uzoq yillardan so'ng uchrashgan ikkala do'stning suhbatini topib o'qing.

Test savollari.

1.Nima uchun Ruben to'rlarini suvga tashlaydigan baliqchilarni izladi?

A).U yangi baliq sotib olishni xohladi.

B). Baliqchilarning qayig'ida suzishni xohladi.

D). Kichik marvaridlarini sotmoqchi edi.

E). Chig'anoq ichidagi marvaridni topishni xohladi.

2.Dengizchilar marvaridlarni qanday qilib topar edilar?

A). Dengizga sho'ng'ir edi.

B). Ular marvaridlarni sotib olishar edi.

D). Ular marvaridlarni dengiz bo'yidagi shaharlardan izlar edi.

E). Ular marvarid izlab sayohat qilar edi.

Mashq daftar bilan ishlash.

1-topshiriq. Testlarni yeching. O'quvchilar hikoya asosida berilgan test savollarining javobini belgilaydilar.

2-topshiriq. Savollarga javob yozing.

1. Ruben qanday qilib boy odamga aylandi?

Ruben dengizning eng sara marvaridlar topish mumkin bo'lgan yerlarigacha sayohat qildi, u yerlarda suvning tubi ko'pincha kumush va pushti rangda tovlanib turardi. Vaqtlar o'tib, u badavlat odamga aylandi.

2. Nima uchun qiz marvarid haqiqatdan ham Joshniki deb aytdi?

Chunki marvaridni Josh topgan edi.

3. Nima uchun Josh Rubenga marvaridni olishi mumkinligini aytdi?

“Ruben, marvaridni sen olaqol, – dedi Josh. – Chunki senga judayam yoqib qoldi u”.

4. Ruben marvaridni olganidan so'ng uning hayoti qanday kechdi? Ikkita misol keltiring.

O'sha kundan boshlab, bolalar Rubenni kamroq ko'radigan bo'lishdi.

Ruben do'stlari bilan xayrlashib, bolaligi o'tgan uyini, dengiz yaqinidagi ona shahrini tark etib, marvarid savdolari bo'ladigan katta shaharlarga jo'nab ketdi.

5. Ruben shaharni tark etgach, qayerga bordi?

Shundan so'ng u baliqchilar to'r tashlab ov qiladigan okean qirg'og'iga bordi va yangi marvaridlar topish maqsadida chig'anoqlar izlashga kirishdi.

6. Ruben qanday qilib boy odamga aylandi?

Ruben marvarid savdosi bilan shug'ullanib boyib ketdi.

3-topshiriq. Bu topshiriq uy vazifasi qilib beriladi. O'quvchilar mustaqil bajaradilar.

V.Darsni yakunlash va o'quvchilarni baholash.

Savol-javob o'tkaziladi.

Darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholab, rag'batlantiriladi.

VI.Uyga vazifa berish. Hikoyani o'qib, so'zlab berishga tayyorlaning.

Bizning o'lkamizda marvaridlar bor deb o'ylaysizmi? Marvarid haqida qiziqarli beshta ma'lumot topib keling.